



Jinoyat protsessida taraflar tengligi va sud nazorati: Germaniya tajribasi asosida O'zbekiston qonunchiligini modernizatsiya qilish

**Alijonov Asrorbek
Adhamjon o'g'li**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro huquq fakulteti
2-bosqich talabasi*

Аннотация

Ushbu maqolada jinoyat protsessida taraflar tengligini ta'minlash va sud nazoratini kuchaytirish masalalari Germaniya Federativ Respublikasining tajribasi (StPO) misolida tahlil qilinadi. Germaniya jinoyat-protsessual qonunchiligidagi "Tergov sudyasi" (Ermittlungsrichter) va "Qo'shimcha ayblov" (Nebenklage) institutlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, ularni O'zbekiston qonunchiligiga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi. Shuningdek, maqolada dalillarning maqbulligi standarti va jabrlanuvchining protsessual maqomini faollashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Sud nazorati, tergov sudyasi, taraflar tengligi, Germaniya JPK (StPO), qo'shimcha ayblov, jabrlanuvchi huquqlari, nomaqbul dalillar, protsessual filtrlar.

Равенство сторон и судебный контроль в уголовном процессе: модернизация законодательства Узбекистана на основе опыта Германии

Алижонов Асрорбек Адхамжон угли

Студент 2-го курса факультета «Международное право» Университета мировой экономики и дипломатии

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы обеспечения равенства сторон и усиления судебного контроля в уголовном процессе на примере опыта Федеративной Республики Германия (StPO). Автор исследует особенности институтов «следственного судьи» (Ermittlungsrichter) и «дополнительного обвинения» (Nebenklage) в немецком уголовно-процессуальном законодательстве и рассматривает возможности их внедрения в законодательство Узбекистана. Также в статье выдвигаются научно-практические предложения по стандартам допустимости доказательств и активизации процессуального статуса потерпевшего.

Ключевые слова: Судебный контроль, следственный судья, равенство сторон, УПК Германии (StPO), дополнительное обвинение, права потерпевшего, недопустимые доказательства, процессуальные фильтры.

Equality of Parties and Judicial Control in Criminal Proceedings: Modernizing the Legislation of Uzbekistan Based on German Experience

Alijonov Asrorbek Adhamjon ugli

2nd-year Student, Faculty of International Law
University of World Economy and Diplomacy

Abstract: This article analyzes the issues of ensuring the equality of parties and strengthening judicial control in criminal proceedings, drawing on the experience of the Federal Republic of Germany (StPO). The author examines the specific features of the "Investigative Judge" (Ermittlungsrichter) and "Private Accessory Prosecution" (Nebenklage) institutes within German criminal procedural law and explores the possibilities of their integration into the legislation of Uzbekistan. Furthermore, the article puts forward scientific and practical proposals regarding the standards of admissibility of evidence and the enhancement of the victim's procedural status.'

Keywords: Judicial control, investigative judge, equality of parties, German Code of Criminal Procedure (StPO), private accessory prosecution, victim rights, inadmissible evidence, procedural filters.

Germaniya Jinoyat protsessual qonunchiliging asosi bu 1877 – yilda qabul qilingan “**Strafprozessordnung**” ya’ni Germaniya Jinoyat Protsessual qonunchiligi hisoblanadi. Ushbu kodeks nafaqat Yevropa, balki boshqa roman-german huquqiy oilaga kiruvchi davlatlar uchun sud-tergov faoliyatining samarali va izchil tashkil qilinagligi bo’yicha namuna bo’la oladi. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari, xususan, jinoyat protsessini liberallashtirish va advokatura institutini kuchaytirish jarayonida Germaniya tajribasini chuqur tahlil qilish muhim strategik ahamiyatga, shu jumladan, Germaniya qonunchiligidagi ba’zi normalardan namuna olgan holda milliy qonunchilikni takomillashtirish imkonini beradi. Germaniya Jinoyat protsessual kodeksining strukturasi mantiqiy izchillikka asoslangan bo’lib, u umumiy qoidalar, birinchi instansiya sudida ish yuritish, shikoyat qilish tartibi, maxsus protsesslar va jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilish kabi yirik tarmoqlardan iborat.

Tahlil davomida eng ko’zga tashlangan jihat bu Germaniyada sudgacha bo’lgan bosqichda shaxs huquqlarining himoya qilinishi mexanizmidir. Germaniya JPKning **162-moddasiga** ko’ra, tergov jarayonida prokuratura va politsiya keng vakolatlarga ega bo’lishiga qaramay, ularning har bir qadami “Tergov sudyasi” ya’ni **Ermittlungsrichter** tomonidan nazorat qilinadi.¹ O‘zbekiston qonunchiligidan farqli ravishda, Germaniyada sud sanksiyasi nafaqat qamoqqa olish yoki tintuv o‘tkazish, balki shaxsning daxlsizligiga daxl qiluvchi har qanday jiddiy harakat uchun shartdir. Masalan, DNK tahlili uchun namuna olish, pochta-telegraf jo‘natmalarini nazorat qilish yoki zamonaviy texnologiyalar yordamida “onlayn-tintuv” o‘tkazish² faqat sudyaning alohida ajrimi bilan amalga oshiriladi. Bu tizim tergov organlarining

¹ 162.html https://www.gesetze-im-internet.de/stpo/_162.html Strafprozeßordnung

² StPO § 100b https://www.gesetze-im-internet.de/stpo/_100b.html

subyektiv yondashuvlarini va korrupsion xavflarni minimal darajaga tushirish imkonini beradi.³

Ikkinchi eng muhim jihatlardan biri bu Jinoyat huquqi jamiyatdagi hayotning o'ta nozik va muhim jihatlari — jinoyat sanksiyalari hamda adolatni o'rnatish bilan shug'ullanishi. Har qanday huquqiy madaniyatda jinoyat protsessining fundamental maqsadi haqiqatni aniqlash, munosib jazo tayinlash va asossiz hukmlardan saqlanishdir. Biroq, shunchaki qonuniy jazo tayinlashning o'zi adolatni ta'minlash uchun kifoya qilmaydi. Agar shaxsga o'zini himoya qilish, dalillarini taqdim etish va yetarli darajadagi yuridik yordam olish imkoniyati berilmasa, hatto tayinlangan jazo mutanosib bo'lsa ham, protsessual adolat talablari buzilgan hisoblanadi. Bugungi kunda jinoyat protsessi shunchaki texnik qoidalar to'plami emas, balki inson huquqlari va davlat hokimiyati shakli bilan chambarchas bog'liq bo'lgan institutdir. Yevropa mamlakatlarida, jumladan Germaniyada ushbu qadriyatlar "Rechtsstaat" (Huquqiy davlat) prinsipi orqali ifodalanadi. Germaniya huquqshunosligida "adolatli sudlov" tushunchasining ekvivalenti sifatida "eines fairen Verfahrens" (adolatli tartib-taomil) prinsipi qo'llaniladi. Ushbu prinsip Germaniya Konstitutsiyasining 20-moddasi va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 6-moddasidan kelib chiqadi. Mashhur olim Klaus Roksinning ta'kidlashicha, adolatli sudlov ayblanuvchining huquqiy davlat tamoyillariga mos keladigan munosabatga bo'lgan huquqini anglatadi.

Ushbu tamoyil asosida bir qator muhim protsessual standartlar shakllangan bo'lib, ular Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi va Oliy sudi tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu standartlarga ko'ra, guvoh o'zi tanlagan advokat ishtirokida so'roq qilinish huquqiga ega, moliyaviy imkoniyati bo'lmagan ayblanuvchi esa davlat tomonidan advokat bilan ta'minlanishi shart. Shuningdek, davlat hokimiyatini suiiste'mol qilish orqali olingan dalillarning maqbul emasligi va ayblanuvchining asosli kutishlariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish adolatli sudlovning ajralmas qismidir. Yana bir muhim element — "protsessual g'amxo'rlik" (Fürsorgepflicht des Gerichtes) bo'lib, u barcha davlat organlariga, jumladan politsiya va prokuraturaga, ayblanuvchini protsessual harakatlarning foyda va zararlari haqida xabardor qilish majburiyatini yuklaydi. Ushbu tizimning markazida "tarafklar tengligi" (equality of arms) tamoyili turadi. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 6-moddasida belgilanganidek, har bir ayblanuvchi o'ziga qo'yilgan ayblov sabablarini tushunish, himoya uchun yetarli vaqtga ega bo'lish, guvohlarni so'roq qilish va agar kerak bo'lsa, bepul tarjimon xizmatidan foydalanish kabi minimal huquqlarga ega bo'lishi shart.⁴

Germaniya jinoyat-protsessual modelining muvaffaqiyati nafaqat qonunlarning qat'iyligida, balki ularning inson huquqlari va protsessual samaradorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashidadir. O'zbekiston qonunchiligini modernizatsiya qilish jarayonida ushbu tajribani tizimli tatbiq etish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

³https://books.google.co.uz/books?hl=en&lr=&id=GFP6B5qLsTEC&oi=fnd&pg=PA7&dq=Criminal+procedure+equality+of+arms+in+Germany&ots=YOJ1xfaqD&sig=24f5H6PhHVARYca5gEeHIKfF91k&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false The Principle of "equality of Arms" in Criminal Procedure

⁴ The principle of 'equality of arms' in criminal procedure under Article 6 of the European Convention on Human Rights and its functions in criminal justice of selected European countries: A comparative view; author Małgorzata Wąsek-Wiaderek

1. Sud nazorati va "Tergov sudyasi" institutini transformatsiya qilish

Germaniya Jinoyat protsessual kodeksi (StPO) **162-moddasiga**⁵ binoan, **Ermittlungsrichter** (tergov sudyasi) tergov organlari ustidan nafaqat rasmiy, balki mazmuniy nazoratni amalga oshiradi. O'zbekistonda sud nazorati doirasini faqat qamoqqa olish yoki uy qamog'i bilan cheklamasdan, shaxsning daxlsizligiga daxl qiluvchi barcha harakatlarga, jumladan, har qanday turdagi tintuvlar, mol-mulkni xatlash va elektron aloqalarni nazorat qilishga kengaytirish zarur. Bu "Real Sanjik" ishi kabi holatlarda yuzaga keladigan protsessual chalkashliklarning oldini oluvchi eng samarali "filtr" bo'lib xizmat qiladi.

2. "Taraflar tengligi" prinsipi va advokat vakolatlari

M. Wąsek-Wiaderek ta'kidlaganidek, "taraflar tengligi" prinsipi ayblanuvchining davlat bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lishini talab qiladi. **Germaniya StPO 147-moddasiga** ko'ra, himoyachi tergovning istalgan bosqichida ish hujjatlari bilan tanishish va mustaqil ekspertizalar tayinlash huquqiga ega. O'zbekiston JPKga ushbu normani kiritish advokatni tergovchiga "iltimos qiluvchi" maqomidan mustaqil protsessual taraf maqomiga ko'taradi.

3. "Nebenklage" (Qo'shimcha ayblov) instituti orqali jabrlanuvchi huquqlarini himoya qilish

Germaniya modelining eng ilg'or jihati — jabrlanuvchining faol ishtirokidir. StPO **395-402-moddalaridagi Nebenklage**⁶ instituti jabrlanuvchiga prokurordan mustaqil ravishda hukm ustidan shikoyat qilish va sudda teng huquqli taraf sifatida qatnashish imkonini beradi. Ushbu mexanizm O'zbekiston qonunchiligiga joriy etilsa, ayniqsa yuqori lavozimli shaxslar yoki "tanish-bilishchilik" bilan bog'liq jinoyat ishlarining adolatli yakunlanishiga zamin yaratadi.

4. Dalillarning maqbulligi va "Beweisverwertungsverbote"

Germaniya huquqida nemo tenetur (o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik) huquqi buzilgan taqdirda, olingan dalil avtomatik ravishda istisno qilinadi. **O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual kodeksi 95- modda prim 1-moddasini** Germaniya tajribasi asosida takomillashtirish, ya'ni protsessual xato aniqlangan taqdirda dalillarni avtomatik ravishda yaroqsiz deb topish mexanizmini kuchaytirish lozim. Bu tergov organlarini ishni faqat qonuniy va professional usullar bilan isbotlashga majbur qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat protsessida adolatli qaror chiqarish nafaqat moddiy qonun normalarini to'g'ri qo'llashni, balki protsessual kafolatlarni to'liq ta'minlashni ham talab etadi. Germaniya va Yevropa tajribasi shuni ko'rsatadiki, ayblanuvchi shunchaki protsess obyekti emas, balki "taraflar tengligi" prinsipi asosida huquqlarga ega bo'lgan faol ishtirokchidir. O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligini modernizatsiya qilish jarayonida Germaniyaning Strafprozessordnung modeli nafaqat texnik qoidalar, balki huquqiy davlat (Rechtsstaat) prinsiplarini amalda qo'llash bo'yicha muhim namuna bo'lib xizmat qiladi. Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, milliy qonunchilikda sud nazoratini kuchaytirish — bu shunchaki qog'ozdagi islohot emas, balki "Real Sanjik" ishi kabi rezonansli holatlarda yuzaga keladigan protsessual xatolarni jilovlovchi eng samarali mexanizmdir. Tergov sudyasi vakolatlarini Germaniya tajribasi asosida kengaytirish

⁵ 162.html https://www.gesetze-im-internet.de/stpo/_162.html Strafprozeßordnung

⁶ <https://www.gesetze-im-internet.de/stpo/BJNR006290950.html#BJNR006290950BJNG003103125>

tergov organlarining o'zboshimchaligiga chek qo'yib, sudgacha bo'lgan bosqichda inson huquqlarini himoya qilish darajasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi. Shu bilan birga, jabrlanuvchining maqomini Nebenklage instituti orqali faollashtirish va advokatlarga tergovning istalgan bosqichida ish hujjatlari bilan tanishish imkoniyatini berish "taraflar tengligi" tamoyilini shunchaki deklarativ ma'nodan real protsessual qurolga aylantiradi. Bu esa o'z navbatida, jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovning shaffofligini oshirib, fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Germaniya tajribasidan olingan ushbu mantiqiy takliflarning hayotga tatbiq etilishi O'zbekistonda jinoyat protsessini yanada liberallashtirishga, korrupsion xavflarni minimallashtirishga va eng muhimi, inson qadrini amalda ta'minlovchi demokratik huquqiy tizimni barpo etishga xizmat qiladi. Ushbu tamoyillar demokratik jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlovchi asosiy ustunlar bo'lib qolishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi <https://lex.uz/mact/-111460>
2. Germaniya Jinoyat protsessual kodeksi <https://www.gesetze-im-internet.de/stpo/>
3. Małgorzata Wąsek-Wiaderek. "The principle of 'equality of arms' in criminal procedure under Article 6 of the ECHR".
4. Claus Roxin. "Strafverfahrensrecht", München, 1993.